



LIRIK TASVIR VA BADIY IFODA

Xalmuratova Ogulsaltan

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

E-mail: ogulsaltanxalmuratova@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek she'riyatida umuminsoniy muammolarning badiiy talqin qilinishi, shoirlar ijodiy individualligi, badiiy mahorati kabi masalalar Abdulla Oripov va Muhammad Yusuf ijodi misolida nazariy va badiiy tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar.** Badiiy tasvir, she'riy struktura, badiiy mahorat, ijodiy individuallik, obraz.*

***Резюме.** В статье анализируется художественное описание общечеловеческих проблем в узбекской литературе, а также индивидуальные творческие способности писателей. Объект теоретического и практического анализа является творчество данных А.Орипов и М.Юсуфа.*

***Ключевые слова.** Художественный образ, поэтическая структура, художественное мастерство, творческая индивидуальность, образ.*

***Summary.** The given article deals with the problems of analysing humans nature in Uzbek literature, individual peculiarities of author's work, artistic skills. The work of A.Oripov and M.Yusuf were taken as an object of theoretical and literary analyse.*

***Key words.** Artistic image, poetic structure, artistic skill, creative individuality, image.*

Kirish. Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash badiiy asarlarning asosiy o'zagini tashkil etadi. Shu ma'noda, yaratilgan asarlarda insonni ezgulikka chorlash, o'z fe'l-atvoridagi mavjud illatlarini anglab yetishi va ular bilan kurashishi singari ko'rinishlar badiiy ifoda qilinadi. Bu narsa ijodkorning butun e'tibori inson qalb kechinmalarini ro'y-rost yoritishga qaratilganligidan dalolat beradi. O'zbek she'riyati asrlar davomida rang-barang uslub va shakllarda taraqqiy etib, turli tamoyillarni vujudga keltirgan adabiy-ma'naviy xazinadir. Chunki, o'zbek adabiyotining barcha bosqichlarida she'riyat yetakchi janr bo'lib kelgan. Ushbu janrda xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot namoyandalari ijod qilib o'zlarining ruhiy kechinmalarini badiiy ifoda qilgan bo'lsalar, bugungi so'z san'atkorlari mumtoz adabiyot an'alariga sodiq qolgan holda she'riyatga yangidan-yangi ifoda shakllarini olib kirmoqdalar. Chunki she'riyat shunday jozibali bir narsaki, u odamni beixtiyor sehrlab o'zga olamga, o'ziga xos hayot va orzu istaklarga oshno etadi. Albatta, bu borada ijodkorlarning mahorati, so'z qo'llash san'ati va badiiy talqin masalasi alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Ma'lumki, she'riyat – shoir qalbi, ruhiy kechinmalaridan vujudga kelgan o'ziga xos olam. Shuning uchun ham o'quvchi yuksak saviyada yaratilgan she'rlarni o'qiganda o'ziga yangi bir dunyoni kashf etadi. Negaki, badiiy adabiyot, xususan, she'riyat asrlar davomida insonning qalb kechinmalarini, ichki olamini kashf etib kelgan. Qolaversa, har bir ijodkor, eng avvalo, o'z xalqining farzandi



sifatida uning orzu istaklari, dard va armonlarini turli xil ifodalarda badiiy talqin etadi. Zero, “Mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega” [1]. Shu ma’nodagi O‘zbekiston Xalq shoirlari: A.Oripov va M.Yusuf she’riyatida badiiy tasvir va obrazlar talqinini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokamalar. Ma’lumki, A.Oripov she’riyati o‘zining sermazmunligi, fikrlar teranligi, badiiy ifodaning o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir she’rlarida qaysi mavzuni qalamga olinmasin, barchasida butun bashariyatga oid muammolar haqida o‘quvchini hayratga soladigan tarzda badiiy talqin etiladi. A.Oripov ijodida uchun xos bo‘lgan shunday mavzulardan biri bu – ayollar madhi. Bu borada shoirning “Ona” deb nomlangan she’ri alohida ahamiyat kasb etadi:

Ka’ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.
Onalar poyiga tiz cho‘k o‘shal on,
Tavof qil, ko‘zga surt, o‘pgin qo‘llarin [4.189].

E’tibor qilsak, ushbu she’rda musulmonlarning eng tabarruk, muqaddas joyi sanalmish Ka’ba qopqasidagi posnonga ham Onalarni tafov qilish, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish ta’kidlanayapti. Shu ma’nodagi, mazkur she’rda shoir Onalarning qanchalik ulug‘ va mo‘tabar zot ekanligini tasvirlashda betakror badiiy ifoda yaratgan.

A.Oripov she’riyatning to‘rtlik shaklida samarali ijod qilib kelayotgan shoirlardan biridir. Uning to‘rtliklarida inson fe’lida mavjud fazilat va illatlar o‘z ifodasini topadi. Shoir to‘rtliklarida inson buyuk yaratuvchi, cheksiz idrok sohibi, shu bilan birga mazkur fazilatlarining tom ma’nodagi aksini keltirib chiqaruvchi shavqatsiz qudrat egasi sifatida ham talqin etiladi.

Paydo bo‘lganida zamin va zamon,
Avval yaralgandir daraxt va hayvon.
Bul ikki soddani aldamoq uchun
Aqlini pesh qilib chiqqan so‘ng Inson [4.250].

Insonga nisbatan berilgan mazkur ta’rif va tasvir kishini teran fikr yuritishga chorlaydi. Zero, shoir to‘rtliklaridagi ma’nodorlik hayotiy haqiqatlar hosilasi sifatida yangraydi. Shu sababli ularda har bir o‘quvchi o‘zining axloqiy fazilatlarini yoki fe’lida mavjud illatlarni anglashi mumkin.

Adabiyotshunos olim N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, “Adabiyotning bosh vazifasi bu – insonni himoya qilish, insonni ulug‘lash, undagi g‘ayriinsoniy illatlar



va odamiylik fazilatlarini kashf etish. Insonning ko'nglidagi rahmon bilan fe'lidagi shaytonning sir-sinoatlarini, qilmish-qidirmishlarini ochib berish" [4.16] ekan A.Oripov she'riyati misolida bu fikrlarning amaliy tasdig'ini kuzatish mumkin.

O'zining rang-barang mavzu va o'ziga xos badiiy tasvirlarga ega bo'lgan she'rlari bilan umumbashariy qadriyatlarni ulug'lagan iste'dod sohibi Muhammad Yusuf ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Shoir ijodida Vatanga sadoqat, umuminsoniy fazilatlarini ulug'lash kabi mavzular eng asosiy o'rinda turadi. Xususan, "Inson" she'rida ushbu masalalar chuqur mazmun-mohiyatga tayangan holda tasvirlangan.

Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,

Yig'lasa ham Vatan, kulsa ham Vatan.

Unga jonni tikmoq tilaging bo'lsa,

Sen odam ekansan, odam ekansan [3.184].

Ushbu satrlarda Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, uning har qanday xizmatiga hozir bo'lish, shu bilan birga uni ardoqlash va asrash har bir insonning sharaflari vazifasi ekanligi tasvirlangan bo'lsa, "Iymon qo'shig'i" she'rida insoniy qadriyatlar diniy – ma'rifiy tushunchalar bilan uyg'unlikda tasvirlanadi.

Umrning har kuni bayrammas, to'ymas,

O'char oqshomi bor, oldinda chiroq.

Ko'ylagingga qarab jannatga qo'ymas,

Ajrim bo'lar bir kun savobu gunoh.

Cho'yan doshqozonga shayton o't qalar,

Qutqarsa, bir kuni iymon qutqarar... [3.195].

Shoir bilan bo'lgan uchrashuvlarning birida M.Yusuf "She'r shoir ko'ngil kechinmalarning tafsilotimi yoki ijtimoiylikka daxldor bitiklarmi?" – deya berilgan savolga shunday javob beradi: "She'r ko'ngilni ijtimoiylikka bog'laydigan rishta ham bo'lmog'i kerak. Shunda she'riyat o'zkuch–qudratini namoyon qiladi. Men she'rni faqat ko'chadan izlab, ko'chadan topaman. Kitob o'qib she'r yozmayman. Kitobdan nasr topish mumkindir. Ammo haqiqiy she'r – odamlar orasida. Ularni ko'ngil ko'zi bilan qog'ozga tushira bilish kerak" [5.45].

M.Yusuf ijodida milliylik, ma'naviy qadriyatlarni ulug'lash alohida o'rin egallaydiki, shoir bu borada hech kimda uchramaydigan, o'ziga xos badiiy topilmalarni kashf etadi. Xususan, "O'zbek qizlari" she'rida shunday satrlarni uchratamiz:

Ko'ngli daryoday keng, mehri ulug'vor,

Dugonasi Hayo, sinfdoshi Or.

Ayting farishtadan nima farqi bor,

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin [3.245].



Mazkur satrlardagi ta'riflar har bir yurakka yaqinligi, qolaversa, samimiy, sodda va ravon ifodalanishi bilan kitobxon qalbini rom etadi. Zero, shoir qizlarimizning milliy-madaniy ruhiyatini tarbiyalashning betakror badiiy talqinini yaratgan.

“Qizg‘aldoq”, “Hayo”, “Farishta” shoir lirikasida tez-tez tilga olinadigan obrazlardir. Shoirning har bir she'rida mazkur obrazlar zamirida o'ziga xos badiiy maqsad va ma'no aks etgan holda ularda ruhiy kechinma nihoyatda nafis ohanglarda badiiy talqin etiladi.

Xulosa. Ko'rinadiki, A.Oripov va M.Yusuf she'riyatida inson hayotining butun murakkabligi hamda uning mazmun-mohiyati tadqiq etiladi. Shu bilan birga insonlarning bir-biriga, tabiatga qanday munosabatda bo'lishi lozimligi va insoniy burchi turfa ko'rinishlarda tahlil qilinadi. Ularning she'rlarida inson ruhiyati, his-tuyg'ularini turli xil ziddiyatli buyoqlarda aks ettirish, odamzod qalbini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan tasvirlash, umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etishga intilish yetakchi tamoyillardan sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi // <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>.
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
3. Мухаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2007.
4. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Ҳамроева М. Эрта сўнган юлдузлар. – Тошкент: Шарқ, 2004.